

UDK: 378.37.01+159.9372:890

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA ESTETIK KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHDA ESTETIK TA‘LIM VA TARBIYA INTEGRATSIYASINING
O‘RNI**

**РОЛЬ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИНТЕГРАЦИИ
ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

**THE ROLE OF AESTHETIC EDUCATION AND EDUCATION
INTEGRATION IN DEVELOPING AESTHETIC COMPETENCE IN FUTURE
TEACHERS**

Yo‘ldosheva Dilduzaxon Alisher qizi

*Farg‘ona davlat universiteti kata o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),*

Adhamova Odinoxon Adhamovna

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda estetik kompetentlikni rivojlantirishda estetik ta‘lim va estetik tarbiyani manzilli integratsiyalashtirish orqali oliy ta‘lim muassasalarida yoshlar bilan samarali ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy faoliyatni baholash mezonlari, estetik kompetentlikka zamonaviy tahdidlarning ta‘sirini kamaytirish, g‘ayriestetikaning global ta‘sirini oldini olish hamda estetik tarbiyani rivojlantirishda falsafiy va pedagogik ta‘limni modernizatsiya qilish, uning o‘quv-metodik va ilmiy-nazariy bazasini shakllantirish, ta‘lim va tarbiyaning estetik mazmunini aniqlashtirishning zamonaviy mexanizmlari yoritilgan.*

Annotatsiya: *В статье рассматриваются критерии оценки эффективности духовно-воспитательной и образовательной деятельности с молодежью в высших учебных заведениях посредством целенаправленной интеграции эстетического воспитания и эстетической подготовки в развитие эстетической компетентности будущих учителей, современные механизмы снижения влияния современных угроз эстетической компетентности, предотвращения глобальное воздействие неэстетического аспекта, модернизации философско-педагогического образования в развитии эстетического воспитания, формирования его учебно-методической и научно-теоретической базы, а также уточнения эстетического содержания воспитания и подготовки.*

Abstract: *The article discusses the criteria for evaluating effective spiritual, educational and educational activities with young people in higher educational institutions through targeted integration of aesthetic education and aesthetic upbringing in the*

20-May, 2026-yil

development of aesthetic competence in future teachers, modern mechanisms for reducing the impact of modern threats to aesthetic competence, preventing the global impact of non-aesthetics, and modernizing philosophical and pedagogical education in the development of aesthetic education, forming its educational, methodological and scientific-theoretical base, and clarifying the aesthetic content of education and upbringing.

Kalit soʻz va iboralar: *shsxs, oʻqituvchi, globallashuv, estetika, estetik taʼlim, falsafa, modernizatsiya, kompetentlik, estetik dunyoqarash, estetik bilim.*

Ключевые слова: *личность, учитель, глобализация, эстетика, эстетическое образование, философия, модернизация, компетентность, эстетическое мировоззрение, эстетические знания.*

Key words: *personality, teacher, globalization, aesthetics, aesthetic education, philosophy, modernization, competence, aesthetic worldview, aesthetic knowledge.*

KIRISH

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida “davlat – inson uchun”, “inson – jamiyat – davlat” tamoyillari asosida estetik munosabatlarni baholash, “korxonalar - oliygoh - ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish asosida maʼnaviy-maʼrifiy ishlarning yagona tizimini yaratish dolzarblik kasb etmoqda. Shuningdek, respublikamizda taʼlimni modernizatsiyalash sharoitida boʻlajak oʻqituvchilarda falsafiy fanlar integratsiyasi asosida estetik kompetentlikni rivojlantirish, uzluksiz taʼlim ishtirokchilarini maʼnaviy-axloqiy va estetik jihatdan toʻgʻri shakllantirish masalalariga katta eʼtibor qaratilmoqda. “Xalqaro tajribalardan kelib chiqib oliy taʼlimning ilgʻor standartlarini joriy etish, jumladan oʻquv dasturlarida nazariy bilim olishga yoʻnaltirilgan taʼlimdan amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim tizimiga bosqichma-bosqich oʻtish”[1] oliy taʼlim tizimini rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yoʻnalishi sifatida belgilab berilgan. Bu esa, boʻlajak oʻqituvchilarda falsafiy fanlar integratsiyasi asosida estetik kompetentlikni rivojlantirishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish, estetik kompetentlikni rivojlantirish mazmuni, bosqichlari, shakl, metod va vositalarini oʻrganish, mazkur jarayonni amalga oshirish texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Интегратив ёндашув асосида бўлажак ўқитучиларнинг эстетик компетентлигини ривожлантиришнинг фалсафий, психологик, маʼnaviy-axloqiy asoslari, tarixiy tafakkur bilan aloqadorligi Sh.Urakov, R.Mavlonova, B.Xodjayev, A.Sulaymonov, A.Xojametov J.Shomurodov, R.Raximov, F.Rabbimova, Sh.Mustafayev, N.Yuldasheva, D.Murodova kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan N.Volkov, I.Zimnyaya, T.Ilina, L.Klikova, N.Kornilova, P.Koveshnikov, S.Lavrenova, I.Mixaylov, N.Rostovsev, B.Yusovlarning tadqiqotlarida kasbiy kompetentlik, boʻlajak oʻqituvchilarida estetik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik, metodik jihatlari yoritib berilgan.

20-May, 2026-yil

Bo‘lajak o‘qituvchilarda estetik kompetentlikni takomillashtirish muammosi xorijlik olimlardan P.Adler, M.Bennett, C.Grant, W.Gudykunst, W.Deming, Y.Kim, D.Lebrun, T.Mathai, R.Norton, P.Sihvolalar tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shaxsda estetik kompetentlikni rivojlantirish uzluksiz jarayon. Uning ibtidosi oiladan boshlanadi va maktabgacha ta‘lim, umumta‘lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi, oliy ta‘limda mustahkamlanadi. Bu jarayonning mustahkamligi esa tarbiyachi-pedagog, o‘qituvchi-murabbiylar bilan bir qatorda davlat xizmatchilarining ham asosiy vazifasidir. Bu vazifalarning to‘laqonli ijrosi oilada - ota va onaning, ta‘lim muassasasida – pedagogning, davlat xizmatlari sohasida – rahbarning estetik tarbiyadagi shaxsiy namunasi asosida ta‘minlanadi. Shunday ekan, jamiyatni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonida estetik tarbiyani rivojlantirishning milliy asoslari fan, ta‘lim, madaniyat o‘rtasidagi mustahkam aloqadorlikka bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Estetik kompetentlik mohiyatan shaxs badiiy tafakkuri va ijodkorlik salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan ma‘naviy jarayon hisoblanadi. U shaxsni shakllanishi, rivojlanishi va faoliyati davomida yonma-yon yuradi. Sababi, inson estetik kompetentlik orqali voqelikdagi go‘zallikni idrok yetadi, ulug‘vorlikni his qiladi, hunuklik va tubanlikka munosabat bildiradi. Shaxsda estetik kompetentlikni rivojlantirishda estetik tarbiyaning o‘rni beqiyos. Tarbiyaning birorta shakli bunday imkoniyat va qamrovga yega yemas, deyish ushun yyetarli asoslar mavjud. Masalan, bugungi kunga kelib estetika fanining tadqiqot sohasi shu qadar kengayib bormoqdaki, u deyarli barcha sohalarda, jumladan, sog‘liqni saqlash tizimida – tibbiyot estetikasi, ekologiya sohasida – ekologik estetika, texnikaviy taraqqiyot sohasida – texnika estetikasi (dizayn) kabi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Ularning estetik asosini yaratish, yaratuvchanlik, yaratishga bo‘lgan intilish va yaratilganni asrash kabi estetik qadriyatlar tashkil etadi. Bu ayniqsa, yosh avlodni milliy tarbiya va yuksak ma‘naviyat asosida voyaga yetkazishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Estetika fani tadqiqotshisi Abdulla Sherning fikriga ko‘ra, estetik tarbiya madaniyatning asosini tashkil etadi: “ ... estetik tarbiyani yo‘lga qo‘ymagan jamiyat hech qachon biron bir yutuqqa erisha olmaydi. ... Estetiklashgan shaxs jamiyatni estetiklashtiradi, estetiklashgan jamiyat esa, o‘z navbatida yangi darajadagi estetiklashgan shaxsni yaratadi va shu tartibdagi o‘zaro ta‘sir millatning qadam-baqadam komillik darajasiga ko‘tarilishi uchun xizmat qiladi”[2]. Darhaqiqat, yuksak madaniyatli, zamonaviy iqtisodda, ilm-fanda, texnikada tutgan mavqening balandligi bu davlatdagi estetik daraja bilan paralell chiziqларdek nisbatga ega. Faqat bu ikki chiziq davomiyligini ularning biri – estetika chizig‘i boshqarib boradi. Ya‘ni millatning estetik tarbiyasi ham jismoniy, ham aqliy, ham axloqiy tarbiya uyg‘unligidan iboratdir.

Estetik tarbiya avlodni go‘zallik haqidagi tuyg‘ularini, tabiatga bo‘lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, jamiyat ma‘naviy rivojidagi yangicha qarashlarini go‘zallik va ulug‘vorlik asosida tarbiyalash hamda san‘atning estetik mazmuni, mohiyati, maqsadi va

20-May, 2026-yil

undan zavqlanish yo‘llarini to‘laqonli o‘zlashtirishdek dolzarb vazifani amalga oshirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil

24-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak” - deya ta’kidlagan edi[3].

Estetik tarbiya - yuksak ma’naviyatning asosi ekanligi - bu psixologik ta’sir bilan bog‘liq hodisalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu jarayonni ong osti hodisasida ro‘y beradigan qo‘yidagi xolatlar orqali izohlash mumkin:

1. Sezgilar. Aytish mumikinki, mana shu 5 ta sezgi ilg‘amagan narsani ong osti ilg‘ash imkoniga ega.

2. Kuzatish. Bu borada reklama va uning estetik tabiatini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Shuning uchun ham mahsulot reklamalari odamlar gavjum bo‘ladigan joylar (bozorlar, ko‘chalar va hokazo)ga o‘rnatiladiki, bunda bevosita kuzatish muhim estetik omilga aylanadi.

3. Tashviqot. Ongosti tashviqotga tabiiy xolda eshitilmaydigan ovozlari orqali ta’sir qilishni kiritish mumkin. Supermarket, kafe-bar, bozor hamda ko‘ngilochar maskanlarda qo‘yiladigan musiqa kishilarning xis-tuyg‘ulariga ta’siri orqali tinglovchilarni mahsulotga yoki biror-bir voqeaga jalb etiladi.

4. Yashirin kadr orqali ta’sir qilish. Mutaxassislar fikricha Insonning ong osti xislariga yashirin ta’sir qilish har doim ham yaxshi yo‘lda ishlatilavermasdan, aksar shum niyatli insonlarga qo‘l kelishi mumkin. Qiziqarli film yoki ko‘rsatuvni namoyish qilayotgan paytda yovuzlikka chorlovchi kadrning bir necha bor ko‘rsatilishi pirovardida insonda o‘sha xolatni amalga oshirish uchun rag‘batni paydo qilishi bugungi kun tibbiyot psixologiyasida isbotlab berildi.

Estetik ta’lim ba tarbiya juda keng ko‘lamga ega bo‘lib, odamni bir butun shaxs sifatida namoyon qiladi. Shuning uchun har qaysi davr, tuzum, jamiyat estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Biroq, bu jarayon pedagoglar zimmasiga juda katta vazifa yuklaydi. Ayniqsa, bugungi kunda tarbiyaning estetik shakli o‘quv va ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutmoqda. Biroq, ko‘pgina oliy ta’lim muassasalarida bu fanga nihoyatda jo‘n va primitiv yondashuv mavjudligini, Estetika fanning maqsadini noto‘g‘ri tushunish holatlari uchrab turishini ta’kidlash o‘rinlidir.

O‘tgan asrning 80-yillarida tabiiy va texnika bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadigan oliy ta’lim muassasalari talabalariga “Sizning ideallaringiz asosan qaysi sohalarda ko‘proq aks etadi?” - degan savol murojaat qilinganida aksariyati adabiyot va san’at sohasini ko‘rsatishgan edi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda estetik kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi tamoyillar ustuvorligini taqozo etadi:

20-May, 2026-yil

- talaba bo‘lajak pedagog (abituriyent uchun);
- eshitdim-ko‘rdim-bajardim (1-kurslar uchun).
- bir ziyoli – o‘n besh talabaga ma’naviy ustoz (2 kurslar uchun)
- o‘rganamiz-o‘rgatamiz (3-kurslar uchun).
- talaba talabaga – ustoz, talaba talabaga – shogird (4-kurslar uchun).

Ushbu tamoyillarni hayotga joriy etish va ommalashtirishda

- a) “onlayn volontyor-pedagoglar” harakatini rivojlantirish;

b) “mobil guruhi” (har bir ta’lim yo‘nalishi uchun alohida)ni tuzish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

v) “Yosh mutaxassislar” guruhini tuzish;

g) bitiruvchilar bilan muntazam aloqa o‘rnatish, ularning imkoniyatlaridan foydalanish o‘zining ijobi samarasini beradi. Bu esa talabalarda quyidagi fazilatlarni namoyon qilish imkoini beradi:

- 1-kurslarda – sadoqat, mafkuraviy immunitet, halollik, qatiyatlilik.
- 2-kurslarda – tashkilotchilik, nomuslilik, holislilik, bag‘rikenglik.
- 3-kurslarda – innovatsion fikrlash, yaratuvchanlik, tadbirkor pedagoglik, mehnatsevarlik, g‘amxo‘rlik.
- 4-kurslarda – mas‘uliyatlilik, irodalilik, fidoiylik, tashabbuskorlik.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasida belgilangan vazifalarning ijrosi, qolaversa tarbiyaning uzviyligi va uzlusizligini ta’minlashning ma’rifiy asosi estetik bilimni taqozo etadi. Jumladan, Konsepsiyaning “IV bob. Oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish”da “17. 3 yoshgacha bolalarda badiiy-estetik didni shakllantirish va intellektni rivojlantirishga mo‘ljallangan alla, ertak, maqollar va topishmoqlarning audio shakli yaratilib, multfilmlar to‘plami tayyorlanadi va hududlarga tarqatiladi” deb ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, Konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasining “I. Oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish” yo‘nalishida 2020 yildan boshlab “Umumta’lim muassasalarining «Tarbiya» fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish” alohida bandda ko‘rsatib o‘tilgan. Biroq, hozirgi paytda umumta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Tarbiya” faii o‘quv dasturi va o‘quv adabiyotlari mazmunida estetik bilim va dunyoqarashning falsafiy mohiyatini ifodalovchi mavzu ilmiy jihatdan boyitilmagan. Bu holat o‘z navbatida, uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda estetik bo‘shliqni yuzaga keltirishi bilan birga ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish samaradorligini kamaytiradi. Buni quyidagi jihatlar bilan asoslash mumkin:

birinchidan, bugungi kunga kelib g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurash aynan estetik bilimni taqozo etmoqda. Endilikda yosh avlodni milliy estetik tarbiya, go‘zal axloq-odob asosida voyaga yetkazish doimo muhim ahamiyat kasb etib kelganligi, bu masalaga e’tibor qaratmaslik, butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishi mumkinligi tobora oydinlashmoqda. Globallashtirish davrida estetik bilimlar doirasi shu qadar kengayib bormoqdaki, u deyarli barcha sohalarida masalan, sog‘liqni saqlash tizimida – tibbiyot

20-May, 2026-yil

estetikasi, ekologiya sohasida – ekologik estetika, texnikaviy taraqqiyot sohasida – texnika estetikasi (dizayn)ning yuzaga kelgani shular jumlasidandir. Shu bilan bir qatorda, jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltirish ham estetika fani oldiga qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Ikkinchidan, estetika fani insonning kundalik hayotiga g‘oyatda yaqin. Chunki, erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a‘zosi go‘zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo‘lishlari, haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlashlari, «ommaviy madaniyat»ning g‘ayriestetik xususiyatlarini rad qila olishlari lozim. Buning uchun esa ta’lim tizimida estetika faniga bo‘lgan hozirgi munosabatni tubdan o‘zgartirish zarur. Chunki, jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalarida estetika fanini o‘qitish masalasiga jiddiy e’tibor qaratiladi. Birgina Garvard Universitetida (AQSH) estetika bo‘yicha 3 ta markaz, 18 ta yo‘nalishda (bu yo‘nalishda estetika sohasiga doir 46 ta fan o‘qitiladi) ilmiy tadqiqot hamda ta’limiy ishlar olib borilayotganligi, Oksford Universitetida (Angliya) esa “Estetika” fakulteti mavjudligi va unda shu sohaga doir 66 ta fan o‘qitilishi estetik bilimlarga bo‘lgan e’tibor katta ekanligidan dalolat beradi.

Uchinchidan, bugungi kunda odamlarga, ayniqsa yoshlarga “huzur-halovat va lazzat manbai” sifatida taqdim etilayotgan ma’lumotlarning aksariyati horijiy ommaviy-axborot vositalari hamda Internet tarmoqlaridagi turli xil saytlar hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Keyingi paytlarda fetishestetika (yengil-yelpi, yaltiroq estetika), “ommaviy madaniyat”ning inson maishiy turmushi bilan bog‘liq saytlari shunchalik ko‘payib ketdiki, ular yoshlarning estetik didini pasaytirishga va estetik dunyoqarashini to‘poslashtirishga olib kelayotganligi bugungi kunda ochiq-oydin namoyon bo‘lib qolmoqda. Yoshlar tarbiyasiga bunday g‘ayriestetik g‘oyalarning tahdid va uning salbiy oqibatlarini tushuntirib beradigan ilmiy nazariy asos aynan estetik bilimni yuksaltirish orqali amalga oshadi.

To‘rtinchidan, estetik bilimning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, ular orasida eng dolzarbi sayyoramizda nafosatga asoslangan estetosfera muhitini yaratish bilan bog‘liq. Chunki texnogensivilizatsiya davrida texnika, texnologiya, umuman noosfera insonning yashash muhitiga aylanib qolgan. Binobarin, insoniyatning tabiiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari kengayib borayotgan bir davrda ularning estetik muhitga ehtiyojlari ortib bormoqda. Shuni ham ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda Internetdan foydalanuvchilar soni kam bo‘lsada, global tarmoqda ishlash yoshlar tomonidan juda qisqa fursatlarda o‘zlashtirilib olinmoqda. Biroq, yoshlarning qaysi veb saytlardan foydalanishi g‘oyaviy tarbiya masalasida katta ahamiyatga ega. Bu borada belgiyalik professor Frenk Tevisson tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Yevropa mamlakatlarida 90 foiz talabalar Internetdan foydalanishar ekan. Ammo, ularning qaysi saytdan foydalanishlarini o‘rganilganda, atigi 10 foiz talaba bevosita o‘quv jarayoniga taalluqli saytlarga, 90 foizi esa, asosan pornografik mazmundagi saytlarga kirishni xush ko‘rishi ma’lum bo‘lgan[4.139-143].

Estetik tarbiya ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida inson ma’naviy va jismoniy olamining uyg‘un tarzda rivojlanishiga ulkan xissa qo‘shadi. Estetik tarbiyada insonning tashqi ko‘rinishi, uning jamoat orasida o‘zini tutishi, jismoniy baquvvat bo‘lishi

20-May, 2026-yil

ham katta ahamiyatga ega. Shubhasiz, yuksak did ma’lum darajada kishining estetik tarbiya ko’rganidan dalolat beradi.

Mazkur fikrlarimiz asosida “Estetik tarbiya klasteri trayektoriyasi” belgilandi va “Estetik tarbiya klasteri” yo’nalishlari ishlab chiqildi:

Shu bois, bo’lajak o’qituvchilarda estetik kompetentlikni rivojlantirishda estetik ta’lim va tarbiyaning zaruriyatini quyidagisha izohlash mumkin.

- globallashev jarayonida inson tabiatida sodir bo’ladigan o’zgarishlarni optimallashtiradi.

- ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida mavjud tahdidlarga qarshi inson go’zalligini har tomonlama uyg’un rivojlanishini ta’minlaydi.

- estetik tarbiyaning asosida insonning hayotga bo’lgan ijodiy munosabati yotadi, bu ijodiylik fetish estetikaning avj olishini oldini oladi;

- insonning estetik didini tarbiyalash orqali uning g’ayriestetik jarayonlarga munosabati shakllanadi.

XULOSA

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, estetika niqobi ostida turli xil ko’rinishdagi “sog’lom turmush tarzi targ’ibotchilari”, “ko’ngilochar” va “musaffa tuyg’u” baxsh etuvchi saytlar talaygina. Eng dahshatlisi keyingi paytlarda internet tarmog’ida vampirizm estetikasi va uning targ’iboti bilan bog’liq saytlarning ko’payib borayotganligi tashvishlanarli xoldir. Bunday targ’ibot saytlarini hozirgi paytda oddiygina qidiruv buyrug’isiz ham topish mushkul emas. Bu borada internet va ijtimoiy tarmoqlarda “vampirizm estetikasi”ga doir ma’lumot-axborotlarning ko’payib borayotganligi va ularning “chaqiriqlari” insonni dahshatga solmay qo’ymaydi. Biroq, eng havflisi bular estetik ko’rinishida go’zallik, ulug’vorlik hamda estetik zavq bag’ishlovchi ma’lumotlar sifatida taqdim etilayotganligi ular oldida “ojizimiz” degan tasavvurga olib kelmasligi kerak.

Estetik tarbiya bo’lajak o’qituvchilarni go’zallik haqidagi tuyg’ularini, tabiatga bo’lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, jamiyat ma’naviy rivojidadagi yangicha qarashlarni go’zallik va ulug’vorlik asosida tarbiyalash hamda sportning estetik mazmuni, mohiyati, maqsadi va undan zavqlanish yo’llarini to’laqonli o’zlashtirishdek dolzarb vazifani amalga oshirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 08.10.2019-yildagi PF-5847-son Farmoni

2. Абдулла Шер. Эстетика. Дарслик. –Тошкент: Ўзбекистон, 2015.

3. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси // 2020 йил 24 январь –Тошкент: Ўзбекистон, 2020.

4. Нисневич Ю.А. Информация и власть. – М.: Мысль, 2000. -С. 139-143.

20-May, 2026-yil

5.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2019 йил 31 декабр, 1059-сон.

6.<https://www.e-adabiyot.uz/maqola/183>

7.Умарова Д. “Оммавий маданият”га қарши курашда эстетик тарбиянинг ўрни // ЎзМУ хабарлари. 2009. №4. Б.75-76.

8.Хосе Ортага и Гассет. Эстетика. Философия культуры. –Москва: Наука, 1996. – С. 167-173.

